

«TASDIQLAYMAN»
O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
Respublika sud ekspertiza
markazi direktori



A.U.Xalilov

2026 y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
X.SULAYMONOVA NOMIDAGI
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZINING
SIFAT MENEDJMENT TIZIMI SOHASIDAGI
2026-YILGA MO'LJALLANGAN MAQSADLARI

Markaz siyosatining asosiy maqsadi - sud ekspertiza tadqiqotlarini yuqori darajada tashkil etish va ishlab chiqarishni ta'minlash, ishonchli, obyektiv va takrorlanadigan natijalarni olish kafolatini hamda mijozlarning ko'rsatiladigan xizmatlar sifati va muddatiga nisbatan yuqori darajadagi roziligini ta'minlashdan iborat.

Markazning Strategik maqsadi - tadqiqot natijalarini xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlashdan iborat.

T/r	Ma'kazning Sifat menedjmenti sohasidagi maqsadlari	Maqsadga erishish bo'yicha tadbirlar va zarur resurslar	Tadbirdan kutiladigan natija	Ijro muddati	Mas'ul xodimlar	Maqsadga erishish belgisi/ Ko'rsatgich foizda %
1	Markaz akkreditatsiya doirasi menedjment tizimini ISO/IEC 17025:2017 standart talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha davriy baholash tekshiruviga tayyorgarlik ko'rish	Markaz sifat menedjmenti bo'yicha barcha hujjatlarini, laboratoriya xonalari va atrof-muhit sharoitlarini monitoringini ko'rib chiqish, xodimlar bilim va malakasini, texnik ta'minlanganlik holatini o'rganish, ISO/IEC 17025:2017	Akkreditatsiya guvohnomasining amal qilishini tasdiqlash	2026-yilning aprel-may oylari	Direktorning ekspertlik faoliyati va ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, sifat bo'yicha menejer, lab./bo'lim boshliqlari	

	Ichki audit dasturiga ko'ra ichki audit tekshiruvlarini o'tkazish	standart talablarini amaliyotga joriy etish Ichki audit dasturi. Ichki audit hisoboti	Audit natijalari sifat menejmenti tizimidagi zaif beradi hamda doimiy takomillashtirish (continuous improvement) jarayoniga xizmat qiladi	Ichki audit dasturiga ko'ra yil davomida	Sifat bo'yicha menejer, bosh auditorlar va auditorlar guruhi	
2	Ichki audit dasturiga ko'ra ichki audit tekshiruvlarini o'tkazish	Ichki audit dasturi. Ichki audit hisoboti	Tadqiqot natijalarining aniqligi, barqarorligi va takrorlanuvchanligi ta'minlanadi, o'lchashlar va xulosalarda xatoliklar minimal darajaga tushiriladi, ekspert xulosalarining ilmiy va huquqiy ishonchiligi oshadi, sud va tergov organlari tomonidan natijalarga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi, laboratoriya natijalarining boshqa laboratoriyalar bilan taqqoslangandagi mosligi baholanadi, metodika va o'lchash jarayonlarida kamchiliklar aniqlanadi, laboratoriyaning texnik kompetentligi tasdiqlanadi, Akkreditatsiya va tashqi auditor uchun ishonchli dalillar shakllanadi	Natijalar ishonchligini ta'minlash yillik dasturi, laboratoriyaning sifatni nazorat qilish uzoq muddatli rejasi. PT/ILS va slepoy test hisobotlari	Sifat bo'yicha menejer, dastur va reja bo'yicha ijrochilar	
3	Ekspertiza tadqiqot natijalari ishonchligini ta'minlash	Natijalar ishonchligini ta'minlash yillik dasturi, laboratoriyaning sifatni nazorat qilish uzoq muddatli rejasi. PT/ILS va slepoy test hisobotlari	Tadqiqot natijalarining aniqligi, barqarorligi va takrorlanuvchanligi ta'minlanadi, o'lchashlar va xulosalarda xatoliklar minimal darajaga tushiriladi, ekspert xulosalarining ilmiy va huquqiy ishonchiligi oshadi, sud va tergov organlari tomonidan natijalarga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi, laboratoriya natijalarining boshqa laboratoriyalar bilan taqqoslangandagi mosligi baholanadi, metodika va o'lchash jarayonlarida kamchiliklar aniqlanadi, laboratoriyaning texnik kompetentligi tasdiqlanadi, Akkreditatsiya va tashqi auditor uchun ishonchli dalillar shakllanadi	Natijalar ishonchligini ta'minlash dasturiga ko'ra yil davomida	Sifat bo'yicha menejer, dastur va reja bo'yicha ijrochilar	
4	Sud ekspertiza sohasida me'yoriy hujjatlar va ISO/IEC 17025:2017 standart talablarini bajarish	Tashqi va ichki hujjatlar qo'llanilishida ularning dolzarbligini ta'minlash	Sud ekspertiza tadqiqotlari samaradorligini oshirish	Yil davomida	Lab./bo'lim boshliqlari, sifat bo'yicha menejer, ichki auditorlar	

5	Laboratoriya/bo'lim o'lchov vositalari va sinov uskunalari metrologik kuzatuvchanligini ta'minlash	Laboratoriya/bo'lim sinov uskunalari va o'lchov vositalari kalibrovka grafigi	O'lchovlar to'g'riligini, ekspert tadqiqotlari natijalarining ishonchligini ta'minlash, obyektiv-xolisona va takrorlanadigan natijalar olish	O'lchov vositalari va sinov uskunalari kalibrash rejasi asosida yil davomida	Lab./bo'lim boshliqlari, sifat bo'yicha menejer
6	Texnik bazani rivojlantirish va modernizatsiyani amalga oshirish	Muqobil uskunalarni tanlash, yetkazib beruvchilarni saralash, kelishuv/shartnomalar tuzish	Akkreditatsiya mezonlarini bajarish va ekspertiza tadqiqotlari jarayonlarini tezlashtirish, harajatlarni kamaytirish va xodimlar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklar riskini kamaytirish	Yil davomida	Direktorning innovatsiyalar moliya-xo'jalik va tijorat masalalari bo'yicha o'rnbosari, lab./bo'lim boshliqlari
7	Markaz lab./bo'limlari xodimlarining bilim va malakasini doimiy oshirib borish	Markaz xodimlarining malaka oshirish o'quv rejalari va dasturlari. Huquqiy va mutaxassislik mavzulari bo'yicha malakali Markaz xodimlarini tayyorlash	Xodimlarning bilim va malakasini doimiy oshirish hamda huquqiy va mutaxassislik yo'nalishlarida puxta tayyorlash natijasida Markazda yuqori malakali, mas'uliyatli va raqobatbardosh kadrlar jamoasi shakllanadi. Bu esa sud ekspertiza faoliyatining sifati, ishonchligi va nufuzini yanada oshiradi.	Markaz xodimlarining yillik malaka oshirish rejalatiga ko'ra yil davomida	Direktorning ekspertlik faoliyati va ilmiy ishlar bo'yicha o'rnbosari, sifat bo'yicha menejer, O'quv markazi xodimlari, lab./bo'lim boshliqlari
8	Buyurtmachilar bilan to'g'ri va qaytuvchi aloqa qilishni ta'minlash, iste'molchilarni qoniqish darajasini oshirish va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan ishonchni shakllantirish	Markaz va uning viloyat bo'limlarida o'tkaziladigan asosiy tadbirlar va ahamiyatga molik yangiliklarini OAV va turli manbalarda yoritib borish, so'rov bo'yicha bajarilgan ishlar sifatini baholash uchun so'rovnomani faollashtirish, buyurtmachilar tomonidan talab va takliflarni olishga intilish, buyurtmachilar (tergov organlari va sudlar,	Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida Markazda mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv, yuqori sifatli va ishonchli xizmatlar, shuningdek barqaror ijobiy obro' shakllanadi. Bu esa sud ekspertiza faoliyatining samaradorligi va ijtimoiy ahamiyatini yanada	Yil davomida	Lab./bo'lim boshliqlari, sifat bo'yicha menejer

		advokatlar) ning qoniqish darajasini me'yorlarga bo'yicha o'rganish, Markazning viloyat o'tkaziladigan ekspertiza turlarini ko'paytirish	oshiradi. Markaz laboratoriyalari faoliyati va ekspert tadqiqotlari natijadorligining yaxshilanishi kuzatiladi.		
9	Xodimlarni risklarni tahlil qilishga va sud ekspertiza jarayonlarini mukammallashtirish uchun ishtirok etishga jalb etish	Markaz asosiy jarayonlaridagi risklarni tahlil qilish, ularni aniqlash, risklarni kamaytirish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va imkoniyatlarni ro'yyobga chiqarish. Markaz risklari va imkoniyatlarini boshqarish	Xodimlarni risklarni tahlil qilishga faol jalb etish va risklar hamda imkoniyatlarni tizimli boshqarish natijasida sud ekspertiza markazida sifat, xavfsizlik, samaradorlik va rivojlanish barqarorligi ta'minlanadi.	Yil davomida	Risklarni boshqarish guruhi, lab./bo'lim boshliqlari, sifat bo'yicha menejer, ichki auditorlar
10	Ekspertiza amaliyotiga yangi usul va texnologiyalarni joriy etish, ekspert tadqiqotlarini o'tkazish parametrlarini yaxshilash	Ekspert tadqiqotlarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda yangi usul va uslubiyotlarni ishlab chiqish, Markaz ekspertiza yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish	Sud ekspertiza tadqiqotlari uslubiyotini rivojlantirish va muqobillashtirish	Yil davomida	Direktorning ekspertlik faoliyati va ilmiy ishlar bo'yicha o'rmbosari, SEITI Direktori, lab./bo'lim boshliqlari
11	Markaz akkreditatsiya kengaytirish ko'rish choralari (Markazning Sud ballistika va izshunoslik ekspertizasi laboratoriyasi, Sud kompyuter-texnikaviy bo'limi, Markazning Xorazm viloyat bo'limi Odam DNK-si sud biologik ekspertizasi)	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasiga ko'ra	Markaz lab./bo'limi tomonidan beriladigan ekspertiza xulosalari va tadqiqot natijalari to'g'riligiga bo'lgan ishonchni oshirish va ularni xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash	2026-yil dekabr oyiga qadar	Markaz rahbariyati, sifat bo'yicha menejer, lab./bo'lim boshliqlari
12	Markaz laboratoriyalari faoliyatiga xalqaro standartlarni joriy etish	STQ 15 Sud ekspertiza sohasidagi standartlashtirish texnik qo'mitasining ish rejasi doirasida	Xalqaro standartlar (masalan, ISO/IEC 17025) asosida ishlab chiqarilgan laboratoriya tadqiqotlarining aniqligi, takrorlanuvchanligi va	2026-yil dekabr oyiga qadar	Markaz rahbariyati, sifat bo'yicha menejer, lab./bo'lim boshliqlari

xolisligini ta'minlaydi. Bu esa ekspert xulosalariga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi; Standartlashtirilgan metodikalar va tartib-qoidalar xatolik xavfini kamaytiradi, natijada sud qarorlari ilmiy jihatdan asoslangan **bo'ladi**; **xulosalar** boshqa davlatlar tomonidan ham tan olinadi, bu esa transchezaraviy ishlar, xalqaro sud jarayonlari, qo'shma ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkonini oshiradi; Standartlar doimiy ravishda xodimlarni o'qitish, bilim va ko'nikmalarni yangilash, ichki va tashqi auditlar o'tkazishni talab qiladi. Bu esa ekspertlarning professional salohiyatini yuksaltiradi; Hujjatlashtirish, sifat menejmenti tizimi va nazorat mexanizmlari orqali shaffoflik kuchayadi, korrupsiya va subyektiv yondashuv xavfi kamayadi; xalqaro standartlar laboratoriyalari: yangi uskunalar, validatsiyalangan metodlar, raqamlashtirilgan ma'lumotlar boshqaruvi

13	<p>Markaz sifat menejmenti va sud ekspertiza tadqiqotlarini ISO/IEC 17025:2017 standart talablari bo'yicha doimiy rivojlantirib borish va yaxshilab borish. Markaz SM bo'yicha rahbariyat tomonidan tahlil o'tkazish</p>	<p>Barcha ichki va tashqi omillarni, Markaz menejment tizimi sohasidagi maqsadlar va siyosatni tahlil qilish, QRSM va jarayon hujjatlarining dolzarbligini ta'minlash, ISO/IEC 17025:2017 standart talablari bo'yicha menejment tizimini shakllantirishga qaratilgan masala va muammolarni muhokama qilish. Rahbariyat tomonidan Markaz SM bo'yicha o'tkazilgan tahlil bayonnomasi va o'tkazilgan tahlil bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasini</p>	<p>kabi ilg'or texnologiyalarni qo'llashga undaydi. Rahbariyat tomonidan tizimli tahlil o'tkazish va ISO/IEC 17025:2017 talablariga muvofiq menejment tizimini doimiy rivojlantirish natijasida Markazda sifat, ishonchlilik, shaffoflik va boshqaruv samaradorligi yuqori darajada ta'minlanadi, sud ekspertiza faoliyatining nufuzi yanada mustahkamlanadi.</p>	<p>2026-yil 30-dekabr sanasiga qadar</p>	<p>Markaz rahbariyati, sifat bo'yicha menejer, lab./bo'lim boshliqlari</p>	
----	--	---	--	--	--	--